

## TADBIRKOR CHOL (Qoraqalpoq xalq ertagi)

Bir chol o'tin terib yurib, qaroqchilarga duch kelib qolibdi. Qaroqchilar choldan ming tilla tanga talab qilishibdi. Chol o'zining kambag'al-bechora ekanligini aytib zorlangan ekan, qaroqchilar ko'nmay:

— Hoy yig'loqi chol, aytganimizni topib bermasang, unda hozir seni o'ldiramiz! — deb dag'dag'a qilishibdi.

— O'ldiradigan bo'lsangiz, uyda kampirim bilan vidolashib kelay, ruxsat bering! — debdi chol.

Qaroqchilar cholning uyiga borib kelishiga ruxsat berishibdi. Ruxsat tekkan chol uyiga kelayotib, qaroqchilardan qanday qutulish haqida o'ylay boshlabdi. Yo'lda kelayotib quyonning ikkita bolasini topib olibdi-da, ularni ko'tarib uyiga kelibdi.

Kampirga:

— Mana bu quyonni eshikning og'ziga bog'lab qo'y, boshqa bittasini hozir o'zim bilan olib ketaman. Sen mo'l ovqat tayyorlab o'tir. Men bir to'da qaroqchi boshlab kelaman. Hiyla ishlatib ulardan qutulmasak, boshimizga kulfat orttiramiz,

— debdi.

Shundan keyin chol quyonlarning birini qo'ymga solib, qaroqchilar kutayotgan joyga jo'nabdi. Cholni ko'rgan qaroqchilar:

— Qani, kampiring bilan vidolashib keldingmi, endi bizlar seni o'ldiramiz! — deyishibdi.

— Kampirim uyda emas ekan, kechikib qolmaslik uchun uni kutib o'tirmay qaytib kelaverdim. Mening bir aqli quyonim bor, hozir undan tayinlab yuboraman, kampirimni topib ovqat tayyorlatib qo'yadi. Men sizlarning hammangizni uyga — mehmonga taklif qilaman. O'ldirish bo'lsa qochmas,- debdi chol. Qaroqchilar cholning quyonini sinab ko'rish uchun uyiga borishga rozi bo'libdilar. Shunda chol qo'ynidan quyonni olib, unga:

- Hoy quyonboy, darrov ovulga borib, kampirimni topib ayt, bizlar borguncha ovqat tayyorlab qo'ysin, chop! — debdi-da, quyonni qo'yib yuboribdi. Quyon shu zahoti ko'zdan g'oyib bo'libdi. Hayratdan og'zi ochilib qolgan qaroqchilar hammalari cholga ergashib, yo'lga tushibdilar. Cholning uyiga kelib qarashsa — haqiqatan ham ovqat tayyor, kampir mehmonlar kelishiga dasturxon yozib o'tirgan emish. Eshik og'zida bog'liq quyonni ko'rgan qaroqchilarning boshlig'i ovqatlanib o'tirib:

— Hoy chol, quyoning rostdan ham aqli ekan, uni bizlarga bersang, seni o'limdan ozod qilamiz, — debdi. Shunda chol qaroqchilarga bu viloyatni tark etish, odamlarning halovatini buzmaslik, halol mehnat qilish sharti bilan qasam ichirib ularga quyonni tortiq qilibdi.

Qaroqchilar cholning shartlarini qabul qilib, qasam ichibdilar va quyonni olib ketishibdi. Ovullariga yaqinlashgan yerda qaroqchilarning boshlig'i quyonga:

— Yugur, xotinga borib ayt, mehmonlar kelyapti, ovqat tayyorlab qo'ysin! — debdi-da, uni qo'yib yuboribdi.

Qaroqchilarning boshlig'i yigitlarini ergashtirib uyiga kelsa, ovqat tugul quyonning izi ham yo'q emish. Ular chol o'zlarini chuv tushirganiga shundagina tushunib yetibdilar. Tadbirkor chol shunday hiyla ishlatib o'limdan qutulgan ekan.